

O`ZBEKISTONDA MHXS GA O`TISH NATIJASIDA ERISHILADIGAN
AMALIY AFZALLIKLAR

Ilmiy rahbar: iqt. fan. dok prof. Hamdamov B. K

TMI magistranti: Xazratqulov O. S

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarb masala bo'lib turayotganligi, jahondagi ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga o'tilayotganligi va mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha ilmiy va amaliy xulosalar shakllantirilgan hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishga karatilgan taklif va tavsiyalar ishlab chikilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobining milliy standarti, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, kompilyatsiya, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, buxgalterlar federatsiyasi.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelibchiqib mamlakat iqtisodiyotiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash orqali investitsion muhitni yaxshilanishiga imkon yaratiladi. Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi (IFAC) direktivasida ta'kidlanganidek: "Moliyaviy hisobot makro va mikro darajada davlat siyosatini yoritadi hamda uzoq muddat davomida davlat xizmatlari va iqtisodiyotni barqaror holga keltirishga yordam beradi" [3]. Bugungi kunda moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarb masala bo'lib turibdi. Jahondagi ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga o'tilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish yo'llarining ayrim masalalari, nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Arens, R.Adams [3], M.Benis, R.Dodj, D.R.Karmaykl, Dj.Robertson va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan moliyaviy hisobotni takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ilmiy maqolalar R.D.Dusmuratov [13], A.K.Ibragimov, I.N.Ismanov, B.A.Xasanov vaboshqalarning izlanishlarida ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari- shu nom bilan ataluvchi Qo'mita tarkibiga kiruvchi davlatlarga qo'llash uchun tavsiya qilingan qoidalar majmuasidir.

Bu xalqaro standartning dunyoga kelishi moliyaviy hisobotning halqaro standartlari Qo'mitasi (MHXSQ) faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu xalqaro tashkilot qator yetakchi davlatlar (Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Gollandiya, AQSh, Buyuk Britaniya va Irlandiya) buxgalterlarning professional birlashmalari tomonidan o'zarokelishuv orqali tuzilgan.

Qo'mitaning funksiyasiga quyidagi maqsadlar kiradi [2]:

- jamoatchilikning manfaatlarini inobatga olib, moliyaviy hisobot standartlarini shakillantirish va nashr etish, hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish qoidalarini ta'minlash, ommaviy qo'llanilishi va ularga rioya qilinishini rag'batlantirish;

- moliyaviy hisobotlarni taqdim etish bilan bog'liq me'yorlar, hisob standartlari va tartiblarini takomillashtirish va muvofiqlashtirish bo'yicha ish yuritish.

Milliy hisobotni xalqaro hisobot standartlari bo'yicha qayta tuzish, xalqaro tajribada ikki yo'l bilan amalga oshiriladi, ya'ni moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish va konversiya usullari.

Transformatsiya usuli oldingi hisobot davri ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga moslab qayta tuzatishni nazarda tutadi. Buning uchun kompaniya xo'jalik muomalalari va hodisalarini hisobda dastlab milliy standartlar bo'yicha aks ettiradi, undan so'ng moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tuzatib, xalqaro standartlariga moslab o'zgartiradi.

Xalqaro standartlarga o'tish paytida yuzaga kelgan farqlarni taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibida hisobga olish halqaro amaliyotda qabul qilingan. Bu farqlardaromad va xarajatlarni milliy va xalqaro standartlarda tan olish mezonlari bilan xarakterlanadi. Masalan, milliy standartlarmiz bo'yicha daromad xajmi yuklab jo'natilgan mahsulot (ish, xizmat)larning hajmi bilan aniqlanadi, xalqaro standartlar bo'yicha esa sotishdan tushgan tushumlar hajmi bilan.

Moliyaviy hisobotning bir tizimidan ikkinchi bir tizimiga o'tishda, tuzatuvchi yozuvlar ta'sirida nafaqat buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari, shuningdek, pul oqimlari va xususiy kapital to'g'risidagi hisobotlarning tegishli moddalarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur [6]:

- zahiralarni qayta baholash. Agarda kompaniya hisob siyosatida qo'llanilgan ishlab chiqarishdagi zahiralarni baholash usuli xalqaro standartlarda ko'zda tutilgan usullardan farqlansa, bunda milliy hisob tizimimizda lifo usulining

qo'llanilishi bekor qilinganligi nazarda tutiladi;

- asosiy vositalarni inventar sanoqdan o'tkazish, bunda ularning ma'naviy va jismoniy eskirishi tufayli qiymatidagi baholashdan yo'qotishlar aniqlanadi;
- uzoq muddatli moliyaviy ijaraga berilgan aktivlar bo'yicha kechiktirilgandaromadlar hisobining to'g'riligini tekshirish;
- aktivlar va majburiyatlarni uzoq va qisqa muddatliga ajratish va boshqa tuzatishlar.

XULOSA VA MUNOZARA

Moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiqlashtirishda moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish jarayoni muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish bu buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlari asosida shakllantirilgan hisob ishlarini xalqaro standartlar talablari asosida qayta guruhlashtirish va hisobot shakllariga tegishli tuzatishlarni kiritish jarayoni hisoblanadi.

Kelgusida moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiqlashtirishda, ulardagi hisobotlarni transformatsiya qilish ishlarini milliy buxgalteriya hisobi bo'yicha buxgalterxodimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lareti. Transformatsiya quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 142- modda.
2. Arens A., Lobbek J. Audit. - M.: Moliya va statistika, 2013, 560-yillar.
3. Adams R. Audit asoslari. - M.: UNITI, 2015. 398s.
4. Benis M. Audit standartlari va normalari. Per. ingliz tilidan. -M.: Audit. UNITI, 2015. 527s.
5. Dodge R. Audit standartlari va normalari bo'yicha qisqacha qo'llanma. Per. ingliz tilidan: so'zboshi S.A. Stukov.- M.: Moliya va statistika, UNITI, 2012. 240p.
6. Carmichael D., Kevorkova J.A. Xalqaro audit standartlari .. - M.: Yurayt, 2014 458s.